XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 19-iyul VI-53-154-3-0-K/24 Jizzax viloyati

Jizzax “Issiqlik Manbai” davlat unitar korxonasining 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan issiqlik energiyasining ta’minoti tizimini kompleks rivojlantirish dasturi”ga viloyat bo‘yicha kiritilayotgan loyihalar hamda issiqlik energiya xizmatlari tariflarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-sonli Qonunining 13-moddasiga muvofiq hududlardagi barcha issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar va tariflarni muhokama qilib, xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-dekabrdagi “Issiqlik ta’minoti tizimini takomillashtirish va issiqlik ta’minoti korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4542-son qarori 2-ilovasining 1-bandi uchinchi xatboshida issiqlik ta’minoti xizmatlariga tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni shakllantirish, deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va o‘rnatish tartibi to‘g‘risidagi nizom ishlab chiqish va tasdiqlash, shu jumladan shakllantirilayotgan narx (tarif) tarkibiga issiqlik ta’minoti tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha sarf-xarajatlar kiritilishi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax “Issiqlik Manbai” davlat unitar korxonasining 2023-2025-yilga mo‘ljallangan issiqlik energiyasi tizimini kompleks rivojlantirish dasturi”ga viloyat bo‘yicha kiritilayotgan loyihalar hamda issiqlik energiyasi xizmatlari tariflari yuzasidan taqdimoti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining Kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” Injiniring kompaniyasi DUK bilan birgalikda davlat dasturiga kiritilgan loyihalarni belgilangan tartibda va o‘z muddatida moliyalashtirish choralarini ko‘rsin.

4. Viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” Injiniring kompaniyasi DUK issiqlik obyektlarining qurilishi bo‘yicha kiritilgan loyihalarni o‘z vaqtida sifatli qilib foydalanishga topshirilishini ta’minlasin.

5. Viloyat Qurilish bosh boshqarmasi viloyat Qurilish nazorati inspeksiyasi bilan birgalikda har bir obyektda ishlarning sifati bo‘yicha alohida nazorat o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Viloyat hokimining Kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” Injiniring kompaniyasi DUK bosh inspektorlariga:

- Dastur ijrosini monitoring qilib borish bo‘yicha ishchi guruhini tuzish;

- Ishchi guruhi tomonidan taqdim etilgan tahliliy ma’lumotlar asosida Dastur ijrosini har oyda bir marotaba majlislarda tanqidiy muhokama qilib borish;

- O‘z vaqtida va to‘liq bajarilmagan loyihalar yuzasidan mas’ul boshqarma, tashkilot va muassasalar rahbarlariga nisbatan tegishli choralarni ko‘rish bo‘yicha takliflarini kiritish;

- Dastur ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha har oyda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi kotibiyatiga ma’lumot kiritib borilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

7. Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi deputatlari:

Dastur ijrosini ta’minlash yuzasidan doimiy nazorat o‘rnatilishini;

Issiqlik ta’minoti tizimlarida amalga oshirilayotgan har bir loyihani to‘liq yakuniga qadar joyiga chiqqan holda o‘rganib borilishini hamda bu borada qat’iy deputatlik nazorati o‘rnatilishini ta’minlasin.

8. Jizzax “Issiqlik Manbai” davlat unitar korxonasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida korxonani modernizatsiya qilish xarajatlari va tabiiy gaz, elektr energiyasining narxlari oshganligini inobatga olib, viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi tomonidan berilgan xulosaga asosan ulgurji iste’molchilar uchun 1 Gkal 396 000 so‘m (qo‘shimcha qiymat solig‘i bilan) etib ta’riflar tasdiqlansin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosarining 2024-yil 17-yanvardagi 03/1-3480-sonli topshirig‘i hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 9-yanvardagi 07/53-569-sonli xatining ijrosini ta’minlash maqsadida viloyatda issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tariflarni viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, “Issiqlik manbai” DUK bilan birgalikda qayta ko‘rib chiqilishini ta’minlasin.

Bunda, aholi uchun bosqichma-bosqich mart va sentabr oylarida 15 foizdan oshirilishini inobatga olinsin.

10. Axborotlashtirish va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi, Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi, “Jizzax haqiqati” gazetasi tahririyatiga dastur ijrosi yuzasidan olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining o‘rinbosari H.Hasanov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

SALIYEV ERGASH
ALIBEKOVICH

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2024-yil 19-iyuldagi
VI-53-154-3-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyatida taklif etilayotgan Issiqlik energiyasi ta'minoti xizmati narxi (tarifi)

№	Iste'molchilar	O'lchov birligi	Amaldagi tarif	Mart	1-apreldan QQS 12%	Jami	Sentabr	QQS 12%	Jami
1	**Aholiga**	1 Gkal	**60 500,0**	69 575	8 349	**77 924**	80 011	9 601	**89 613**
2	Aholi uchun markaziy isitish (SO)	1m2 uchun 1 oyga	**1 285,0**	1 478	177	**1 655**	1 699	204	**1 903**
3	Aholi uchun issiq suv ta'minoti (GVS)	1 odam uchun 1 oyga	**13 989,0**	16 087	1 930	**18 018**	18 500	2 220	**20 721**
4	Issiq suv hisoblash asbobi bo'yicha	1 m3	**3 691,0**	4 245	509	**4 754**	4 881	586	**5 467**
5	**Yagona ulgurji iste'molchilar**	1 Gkal	**94 050,0**	396 000	47 520,0	**443 520,0**	-	-	**443 520,0**